

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti**

universiteti

rektori Sh.Sirojiddinov



25-avgust 2026-yil

**10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga
kirish imtihoni dasturi**

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2026-yil 25-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar: f.f.d., professor B.Karimov
f.f.d., professor U.Rasulova

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi Nizom"i oliy ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini jahon standartlari darajasiga ko'tarish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. 2016-yil 13-maydagi PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida boy manbalar dalolat beradi.

10.00.14 – XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon ixtisosligi buyicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonining ushbu dasturi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda tuzildi va taqdim qilingan mavzular, nazorat savollari tadqiqotchilar bilim saviyasini aniqlashga yetarli kafolatdir.

Dastur talabgorlarning yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun zarur bo'lgan muhim manbalarni o'z ichiga oladi.

XX asr o'zbek adabiyoti

Mahmudxo'ja Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. "Padarkush" pyesasi. Publitsistikasi. Adabiy-estetik qarashlari. Sayohat xotiralari.

Abdulla Avloniy. Hayoti va adabiy merosi. Avloniyning pedagogik asarlari. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining ma'rifiy-axloqiy va pedagogik qarashlar taraqqiyotidagi o'rni. Avloniy dramalari. "Afg'on sayohati" asari.

Fitrat ijodi . She'riyati. Dramalari. "Abulfayzxon" tragediyasining tahlili. Ijtimoiy-publitsistik asarlari: "Munozara", "Hind sayyohi", "Sharq siyosati".

Hamza adabiy merosining yangicha talqini. "Devoni Nihoniy"da an'ana va yangilanish. Hamza she'rlarida milliy uyg'onish g'oyasi. Hamza nasri va jadidchilik. "Yangi saodat" milliy romani. Dramalari.

Abdulla Qodiriy romanlari. Yozuvchining ilk asarlari. "O'tgan kunlar" – birinchi o'zbek romani. "Mehrobdan chayon" romanining tahlili.

Cho'lpon adabiy merosi. Adib biografiyasi va ilk hikoyalari. Lirik merosi. Milliy she'riyatning yangilanishida Cho'lponning o'rni. Shoirning XX asr 20-yillardagi she'riyati. Ijodkorning 30-yillar lirikasida murosasozlik ohanglari.

Yangi o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Adabiyot tarixini davrlashtirish tamoyillari.

Milliy ozodlik va adabiyot. Yangi ijodiy izlanishlar. Realistik tamoyillarning ustuvorligi. Modernistik adabiyot yaratish yo'lidagi izlanishlar.

Oybek romanlari. Yozuvchining hayot yo'li. "Qutlug' qon" romanida milliy ozodlik harakatining aks ettirilishi. "Navoiy" romanining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni.

G'afur G'ulom she'riyati. Shoir biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Shoirning urush davri she'riyatiga 3 xos asosiy xususiyatlar. "Sharqdan

kelayotirman" to'plamidagi she'rlar tahlili.

Abdulla Qahhor adabiy merosi. Hikoyanavislik mahorati. Hayot yo'li va ijodining bosqichlari. Adib hikoyalarida realizm an'analari. "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarining tahlili. Abdulla Qahhor romanlari.

Said Ahmad nasri. Hikoyalari. Yozuvchining qissalari. "Ufq" trilogiyasi va "Jimjitlik" romani tahlili. "Qorako'z Majnun" to'plami

Odil Yoqubov romanlari. Yozuvchi biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Odil Yoqubov o'zbek adabiyotida tarixiy-polifonik romanning asoschisi sifatida. "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo", "Diyonat" romanlari tahlili.

Pirimqul Qodirov nasri. Yozuvchining hayot yo'li va dastlabki asarlari. Adibning zamonaviy mavzudagi qissa va romanlari. "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" romanlarining o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rni.

Erkin Vohidov she'riyati. Shoir lirikasi. G'azal va muxammaslari. Shoirning hajviy she'rlari. Erkin Vohidov dostonlari. "Ruhlar isyoni" dostoni tahlili. "Istanbul fojiasi" dostoni badiiyati. Erkin Vohidov – tarjimon.

Abdulla Oripov ijodining o'rganilishi. Abdulla Oripov lirikasining asosiy xususiyatlari. Shoir she'riyatida milliy ozodlik mavzusi. "Haj daftari", "Hikmat sadolari" turkumlarida diniy-ma'rifiy mavzu talqini. Abdulla Oripov sayohatnomalari badiiyati. "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal", "Sohibqiron", "Istiqlol manzaralari" dostonlari tahlili. "Everest va ummon" to'plamidagi she'rlarning falsafiy mohiyati va badiiyati.

O'tkir Hoshimov. Adibning hayot yo'li, dastlabki hikoya va qissalari. "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" qissalari. "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari tahlili.

Shukur Xolmirzaev nasri. Yozuvchining tarjimai holi va ijodining ilk bosqichi. Shukur Xolmirzaev hikoyalarining o'ziga xosligi. Adibning qissa va romanlari.

Rauf Parfi ijodi. Shoir biografiyasi va ilk ijodi. Rauf Parfi lirikasining asosiy xususiyatlari. "Sabr daraxti", "Tavba" to'plamlariga kirgan she'rlari tahlili.

Tog'ay Murod nasri. Adib qissalarida milliylik masalasi. Yozuvchi romanlarida davr muammolari tasviri

Erkin A'zam ijodi. Adib qissalarida kinoyaning o'rni. Yozuvchining adabiy-estetik qarashlari

Xurshid Do'stmuhammad nasri. Yozuvchi asarlarida tarixiy shaxslar obrazi

Xayriddin Sulton ijodi. Adib romanlarida tarixiylik va badiiy to'qima

Isajon Sulton nasri. Adib hikoyalarida inson va tabiat uyg'unligi ifodasi

Zamonaviy o'zbek nasri. Bugungi o'zbek hikoyachiligining o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy qissachilikning taraqqiyot tamoyillari. Bugungi o'zbek romani.

Zamonaviy o'zbek she'riyati. Bugungi o'zbek she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. She'riyatda shakliy izlanishlarning o'rni. Zamonaviy dostonchilik xususiyatlari. She'riyatda an'ana va yangilanish. O'zbek she'riyatida jahon adabiy-estetik tafakkuri sintezi.

Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi. Dramaning janriy belgilari. Bugungi

o'zbek dramaturgiyasining xususiyatlari. O'zbek dramalarining tili. O'zbek dramalarida milliy ruh ifodasi.

Adabiyotlar:

1. Erkin Vohidov. Iztirob. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Erkin Vohidov. Saylanma. Ikki tomlik. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1986.
3. Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. Toshkent: G'afur G'ulom, 2015.
4. Каримов, Б. Рухият алифбоси: – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
5. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. – Toshkent, 2020.
6. Карим, Б. Истиқлол адабиёти: назм ва наср / Баҳодир Карим. – Тошкент: Firdavs-shox, 2021.
7. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
15. Murod Tog'ay. Ot kishnagan oqshom. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 1994.
13. Murod Tog'ay. Otamdan qolgan dalalar. Roman. – Toshkent: Sharq, 1994.
14. 1994.
16. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan 1995
17. Oripov. A. To'liq asarlar to'plami. To'rt jildlik. – Toshkent. 2001
18. Parfi R. Sabr daraxti. – Toshkent Sharq, 1986.
19. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997
20. Said Ahmad. Saylanma. Uch tomlik. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1980-1983
21. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
22. Xolmirzaev Sh. Uch jildlik. – Toshkent: Sharq, 2003.
23. Cho'lpon. Asarlar. Uch jildlik. – Toshkent: 1994-1995.
24. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon. Romanlar. – Toshkent: 1992
25. Qodirov P. Saylanma. Uch jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1987-
26. Hoshimov O'. Saylanma. Ikki jildlik. – Toshkent: Sharq, 1993.
27. Xurshid Do'smuhammad. Qissalar. T., "Sharq", 2010
28. Shavkat Rahmon. Saylanma. T., "Sharq", 1997.
29. Usmon Azimov. Saylanma. T., "Sharq", 1995.
30. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent, 2021.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo‘yiladigan talablar
86-100	Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan. Nazariy jihatlarni yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib, bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim jihattlarigina yoritilgan yoki umuman yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.

NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. Cho‘lponning lirik merosi.
2. Avloniyning pedagogik asarlari.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy-estetik qarashlari.
4. Hamza she‘rlarida milliy uyg‘onish g‘oyalarining ifodalanishi.
5. “O‘tkan kunlar” – birinchi o‘zbek romani.
6. Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi tahlili.
7. Milliy she‘riyatning yangilanishida Cho‘lponning o‘rni.
8. Mahmudxo‘ja Behbudi va Turkiston milliy matbuoti.
9. Cho‘lpon biografiyasi va ilk hikoyalari.
10. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida drama janrining yuzaga kelish omillari va dastlabki namunalari.
11. “Mehrobdan chayon” romanining tahlili.
12. Abdulla Qodiriy hikoyalarining janr xususiyatlari.
13. “Mehrobdan chayon” romanidagi Ra‘no, “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazlarining badiiy-tipologik xossalari.
14. Cho‘lpon lirikasining falsafiy o‘ziga xosligi.
15. Cho‘lponning milliy she‘rlari.
16. “Kecha va kunduz” romani kompozitsiyasi va syujet xususiyatlari.
17. XX asr o‘zbek adabiyotini davrlashtirilishi masalasi.
18. Oybek lirikasida lirizm va sentimentalizm uyg‘unligi.
19. “Qutlug‘ qon” va “Kecha va kunduz” romanlari obrazlarining qiyosiy tahlili.
20. Oybek prozasining tasnifi va umumiy tahlili.
21. G‘afur G‘ulom qissalaridagi obrazlarning individualligi va ijtimoiy-psixologik mohiyati.

22. Mirtemir she'riyatining milliy o'ziga xosligi.
23. Odil Yoqubov romanlarining badiiy-tarixiy xususiyatlari.
24. Abdulla Oripov lirikasiga xos xususiyatlar.
25. Abdulla Oripov dostonlari.
26. Erkin Vohidov ijodida doston janrining o'rni.
27. Erkin Vohidov she'riyatiga xos xususiyatlar.
28. O'tkir Hoshimov romanlarining syujeti va obrazlar tizimi.
29. Omon Matjon she'riyatida tarixiy obrazlar tizimi.
30. Rauf Parfi sonetlari.
31. Shavkat Rahmon she'riyatining milliy-ijtimoiy o'ziga xosligi.
32. Shukur Xolmirzaevning hikoyachilik mahorati.
33. Murod Muhammad Do'st romanlarida jahon nasri an'analari.
34. Tog'ay Murod romanlari mavzu ko'lami.
35. Tog'ay Murod qissalarining badiiy xususiyatlari.
36. Xayriddin Sultonning romanlarida zamon va makon tasviri
37. Xurshid Do'smuhammad hikoyalari
38. Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi.